

# YASHIL

## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 463 sahifa.  
E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

## Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Khusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 Makroiqtisodiyot  
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 Ekonometrika va statistika  
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 Marketing  
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 Menejment  
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
<b>Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov</b>	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
<b>Musayeva Shoirazimovna</b>	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
<b>Ж.Я.Нуриллаев</b>	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta’siri tahlili.....	37
<b>Xolmamatov Farhodjon Kubaevich</b>	
O‘zbekiston respublikasida aholi bandligini ta’minlashdagi dolzarb masalalar .....	44
<b>Ibragimov Elmurod Gulboynor o‘g‘li</b>	
O‘zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta’minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta’sirini ekonometrik tahlil qilish.....	48
<b>Fayziyev Rabim Alikulovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti .....	60
<b>Umurzoqova Adiba Ochilovna</b>	
Qishloq xo‘jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari .....	67
<b>Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich</b>	
O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik) .....	72
<b>Qodirov Farxod Amirovich, Bo‘ribaeva Qundiz Muratbaevna</b>	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
<b>Mahamatova Maftuna</b>	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o‘zbekiston miqyosida.....	83
<b>Koshanov Abdimurat Azat uli</b>	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
<b>Nurillayev Jasurbek Davronbekovich</b>	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
<b>Soatova Nodira Boboxanovna</b>	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
<b>Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li</b>	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
<b>Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o‘g‘li</b>	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo‘llari.....	110
<b>Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna</b>	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida .....	117
<b>Nodir Xidirov G‘iyosaliyevich</b>	
Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidiligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati .....	122
<b>Bauyetdinov M.J.</b>	
Теоретические подходы к определениям агрессий социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей .....	128
<b>Алимова Райхона Баходировна</b>	
Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....	139
<b>Komilov Umidjon Normurod o‘g‘li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi</b>	



Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari .....	143
<b>Nematulloev Suxrob Sobirovich</b>	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi .....	148
<b>Kamola Xaydarova</b>	
“Sibir daryolarining burilishi” loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili .....	153
<b>Mahmudov Nosir Mahmudovich</b>	
Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli .....	159
<b>Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li</b>	
Scientific-theoretical foundations of the use of ict in ensuring management efficiency and security in enterprises .....	165
<b>Khalilov Bekzod Akhmatovich</b>	
Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....	171
<b>Mirtursunova Dinara Anvarovna</b>	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'llari.....	175
<b>Tangriyev Izzat Raxmatullayevich</b>	
Qashqadaryo viloyatida eko va etno turizmni rivojlantirishning istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi.....	181
<b>Erkayeva Barno, Xushvaqto'v Ramziddin</b>	
O'zbekiston bank tizimida raqamli valyutalar va yashil investitsiyalar integratsiyasini takomillashtirish .....	186
<b>Nodirov Azizxon Asrorovich</b>	
Global energiya noaniqligining o'zgaruvchanligi ekonomertik modellari .....	192
<b>Bexzod Qo'ziboev</b>	
Экоцифра: цифровизация МСП для зеленого устойчивого роста .....	197
<b>С.С. Убаева</b>	
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va ekologik toza hududni yo'lga qo'yishning ahamiyati .....	201
<b>Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich</b>	
Statistika fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari.....	206
<b>Nabixodjaev Abbas Abdupattahovich, Umarova Mukaddas Abbasovna</b>	
Hududlarning atmosferaga chiqaradigan zararli chiqindilar miqdorini sanoat mahsulotiga nisbati bo'yicha tahlili .....	210
<b>Baqoyev Husan Nuriddinovich</b>	
Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish .....	216
<b>Nuraliyeva Komila Sanakulovna</b>	
Qishloq xo'jaligini «yashil» iqtisodiyot asosida rivojlantirishga o'tishning zarurligi va mohiyati .....	221
<b>Yoldoshev Mutalib Ibrohimovich</b>	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda “yashil investitsiyalar” dan foydalanishning xorij tajribalari .....	225
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna, Rustamova Nasiba Arslanovna</b>	
Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni.....	230
<b>Raxmonova Feruza Musaqulovna</b>	
Oliy ta'lim xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni.....	234
<b>Mirzaxajeva Shaxzoda Shuxratovna</b>	
Tijorat banklari muammoli kreditlarining likvidlilikka ta'siri.....	240
<b>Karshiyev Adham Anvarovich</b>	
Kichik firmalarning raqobatbardoshligini oshirishning nazariy metodologik jihatlari.....	245
<b>Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Aliyev Maqsudbek Erkinovich</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari.....	251
<b>Talapova Nargiza Baxriddinova</b>	



“Deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvining psixologik xususiyatlari” .....	255
<b>Saidbekova Feruza Anvarbek qizi</b>	
Aholi daromadlarini diversifikatsiya qilishda davlat siyosatining roli va imkoniyatlari .....	258
<b>Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li, Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich</b>	
Анализ показателей развития зелёной химии по всему миру и в узбекистане за последние десять лет .....	262
<b>Фозилова Фирангиза Комиловна</b>	
Tijorat banklarining o‘zbekiston respublikasi iqtisodiyotiga ta’siri .....	270
<b>Masharipov Rasulbek Jo‘rabekovich</b>	
Biznes birlashuvda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish yo‘nalishlari .....	273
<b>Hamroyeva Zuhra Amiral qizi, Xayitboyeva Laylo Oybekovna, Mirzarayimov Sardorbek Ravshanovich</b>	
O‘zbekiston respublikasida pul-kredit siyosatining maqsadi .....	277
<b>Adilov Zuxriddin Marip o‘g‘li</b>	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish va bozorlararo aloqalarining statistik o‘zgarish tendensiyalari .....	281
<b>Zakirova Umida Maxamadaminovna</b>	
Iqtisodiy bilimlarni shakllanishi va rivojlanishi .....	286
<b>Po‘latov Abdulloh Xolxo‘jayevich</b>	
Теоретические основы эффективного управления финансовыми ресурсами предприятий с государственной долей (на примере узбекистана) .....	291
<b>Ахмедов Дилшод Турсункулович</b>	
Robototexnika asoslari va maktab ta‘limida qo‘llanilishi .....	298
<b>Tuxliyev Muslimbek Sherzod o‘g‘li</b>	
Sun‘iy intellektlar yordamida o‘quvchilarni hayotiy faoliyat ko‘nikmasini shakllantirishi .....	303
<b>Mirxasilova Zulfiya Kochkarovna, Abdurahmanova Ozoda Djo‘rayevna, Kurbanov Azimjon Jo‘raboy o‘g‘li</b>	
Levi tengsizligi uchun A.N. Kolmogorov teoremlari .....	316
<b>Saypiddinov Shukurullo Sadrdinovich, Baxramov Rustamjon Qambarali o‘g‘li</b>	
Rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimida raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish afzalliklari .....	320
<b>Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Umedov Abdullo Umedovich</b>	
O‘zbekiston respublikasining mdh mamlakatlari bilan tashqi savdo faoliyati tahlili: o‘zgarish tendensiyalari va istiqbollari .....	326
<b>Ilyosov Asrorjon Axrorjon o‘g‘li, Abdullaev Alisher Maxmudovich, Tuxtasinova Muxayyo Mirzasultonovna</b>	
Elektron tijoratni rivojlantirishning xorij tajribasi .....	330
<b>Madieva Zuxra Iskandarbekovna</b>	
Inson resurslarini o‘rganishning asosiy yondashuvlari: mohiyat-ta’rifiy tahlil .....	336
<b>Bakirov Qobiljon Mamatyusupovich</b>	
Bandlikni ta’minlashda davlat tomonidan institutsional muhit yaratishning roli .....	340
<b>Dilorom Tojiboyeva, Umida Ravshanovna Anvarova</b>	
Mamlakatimizda islom moliyasini rivojlantirish maqsad va choralari .....	346
<b>Xoliyorov Xomid Boynazarovich</b>	
Разработка экспертной системы для оценки финансового состояния предприятия .....	352
<b>Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna</b>	
Farg‘ona vodiysi viloyatlarida kichik biznes ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi: panel regressiya tahlili .....	362
<b>Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi</b>	
O‘zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblashdagi asosiy muammolar va ularning yechimlari .....	368
<b>Farmonov Ilhomjon Iqboljon o‘g‘li</b>	
Xorijiy tajriba asosida korxonalar innovatsion faolligini boshqarishni takomillashtirish .....	374
<b>Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi</b>	
Mahalliy davlat hokimiyati organlarida milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish .....	380
<b>G‘aniev Elyor Sobirjonovich</b>	
O‘zbekistonda sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishning ahamiyati .....	386
<b>Mirzayev Muzaffar Maxmudovich</b>	



The role of international investments in greening and ecological rehabilitation of the aral sea region .....	392
<b>Ospanova Feruza Bazarbaevna</b>	
“Зеленое направление” совершенствования бухгалтерского учета .....	397
<b>Ибрагимов Гайратжон Артикович</b>	
Xarajatlarni kelib chiqish joylari va javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olishni takomillashtirish .....	403
<b>Xamidova S.Ya.</b>	
Mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirishning metodologik asoslari va ularni takomillashtirish.....	409
<b>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</b>	
O'zbekistonda kichik turar joy biznesini rivojlantirishda xorijiy tajribalar .....	414
<b>Yo'ldashev Bekzodjon Sherzodjon o'g'li</b>	
Tijorat banklarida davlat maqsadli dasturlarini moliyalashtirish yuzasidan ilmiy-nazariy qarashlar.....	419
<b>Shodiyev Shuhrat Sunnat o'g'li</b>	
Qandolat mahsulotlari bozorida marketing strategiyalaridan foydalanishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	426
<b>Azlarova Munira Muxammad-Amin qizi</b>	
Risk management in commercial banks, methodological approaches and practical implementation .....	433
<b>Baymuratova Zina Aqilbekovna, Jarilkapova Naubaxar Paraxat qizi</b>	
The impact of competition on economic growth: evidence from uzbekistan's automotive industry.....	439
<b>Saydaliyeva Dilrabo Baxriddin qizi</b>	
Raqamli texnologiyalarning oliy talim xizmatlarini rivojlantirishdagi o'rni.....	444
<b>Mirzaxadjayeva Shahzoda Shuxratovna</b>	
Развитие производства сельскохозяйственной продукции путем развития цифровых технологий.....	450
<b>Юсупов Мухиддин Соатович</b>	
Tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirish risklarini boshqarish amaliyotini takomillashtirish .....	457
<b>Berdiyev Akram O'ktamovich</b>	



# TIJORAT BANKLARIDA LOYIHAVIY MOLIYALASHTIRISH RISKLARINI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH



**Berdiyev Akram O'ktamovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Bank ishi” kafedrası dotsenti, PhD

E-mail: [a.berdiyev@tsue.uz](mailto:a.berdiyev@tsue.uz)

**Annotatsiya:** Maqolada loyihaviy moliyalashtirishda yuzaga keladigan risklarini boshqarishning mexanizmlari, ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Risklarni boshqarishning joriy holati tahlil etilib, tijorat banklari amaliyotida yanada rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** banklar, tijorat banklari, investitsiya, tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirish, risk, risklarni boshqarish, risk-boshqaruvi, sifat ko'rsatkichlari.

**Abstract:** The article explores the mechanisms of risk management in project financing, focusing on both theoretical and practical aspects. The current state of risk management is analyzed, and proposals and recommendations are developed to enhance its implementation in commercial banking practices.

**Key words:** banks, commercial banks, investment, project financing in commercial banks, risk, risk management, risk control, quality indicators.

**Аннотация:** В статье исследуются механизмы управления рисками, возникающими при проектном финансировании, а также их научно-теоретические и практические аспекты. Проведен анализ текущего состояния управления рисками, разработаны предложения и рекомендации по дальнейшему совершенствованию данной практики в коммерческих банках.

**Ключевые слова:** банки, коммерческие банки, инвестиции, проектное финансирование в коммерческих банках, риск, управление рисками, риск-менеджмент, показатели качества.

## KIRISH

Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, jahon iqtisodiyotining globallashuvi, shuningdek xalqaro va mahalliy bozorlarda raqobatning keskinlashuvi sharoitida tijorat banklarida loyihalarni moliyalashtirish, mavjud muammolar, risklarni boshqarishda qo'llaniladigan mexanizmlarni takomillashtirish dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni samarali va o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining



“Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi[1] yangi tahrirdagi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi[2], “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[3] farmonlari hamda “Xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[4] qarori va boshqa bir qancha huquqiy-me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi va moliyaviy mablag‘larini faol jalb etish bo‘yicha keng kulamli, izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur chora-tadbirlar doirasida iqtisodiy jihatdan asoslantirilgan loyihaviy moliyalashtirish manbalari aniq belgilangan holda mamlakatni rivojlantirish davlat dasturlari va moliyalashtirishning sifat jihatdan yangi tartibi joriy etildi.

Aytish mumkinki, so‘nggi yillarda mamlakatimiz bank tizimi jami kredit portfelida investitsion kreditlarning yanada o‘sayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bu esa, tijorat banklarining loyihaviy moliyalashtirishda risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi va dolzarbligini oshiradi.

Bundan tashqari, alohida ta‘kidlash o‘rinliki, loyihalarni moliyalashtirish banklarning yuqori riskli faoliyati hisoblanib, bu turdagi risklarni boshqarish murakkab va ko‘p pog‘onali jarayon hisoblanadi.

Shundan kelib chiqqan holda, loyihaviy moliyalashtirish bilan shug‘ullanuvchi tijorat banklari risklarni boshqarish maqsadida «risk-boshqaruvi» jarayoniga ko‘maklashuvchi o‘ziga xos ilmiy-nazariy asoslarini shakllantirishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi olimlardan Ya.M.Mirkin tijorat banklarining investitsion faoliyati sifatida “Universal va ixtisoslashgan tijorat banklarining kredit va ulush asosida investitsion loyihalarni moliyalashtirishga, birlamchi bozorda qimmatli qog‘ozlarning emissiyasini tashkil etish va joylashtirishga, aktivlarni boshqarishga, investitsion kompaniyani boshqarishga, ko‘chmas mulk bilan bitimlarni amalga oshirishga, konsalting-tahliliy va broker-dillerlik operatsiyalariga qaratilgan faoliyatni e‘tirof etadi”[5].

Shuningdek, A.Naryana tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tijorat banklari investitsion faoliyatida risk-boshqaruvi jarayonlari quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi keltirib o‘tilgan: ya‘ni, riskning mohiyatini aniqlash va tahlil qilish; risk bilan bog‘liq yo‘qotishlarni baholash va hisoblash; risklarni boshqarish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, riskni boshqarish bilan shug‘ullanuvchi mansabdor shaxslarning vakolati orqali riskni kamaytirish; risklarni boshqarish bo‘yicha taqdim etilgan hisobotlarni belgilangan mezon va qoidalarga muvofiq tayyorlanganligini nazorat qilish; risk darajasiga qarab daromad olish (yuqori risk yuqori daromad, kam risk kam daromad). Risk bilan daromadni muvofiqashtirish ta‘kidlanadi[6].

Bundan tashqari, xorijlik iqtisodchi olimlardan P.Rouz bank riski tushunchasiga nisbatan kengroq yondashadi va uni asosiy 6 ta turdagi riskdan, ya‘ni kredit riski, foyda ololmaslik riski, likvidlilik riski, bozor riski, foiz riski, to‘lay olmaslik riskidan tashkil topishini ta‘kidlaydi. Shu bilan birga, P.Rouz yuqoridagi oltita risklarga bank faoliyatida juda muhim, hal qiluvchi risklar sifatida, siyosiy risk hamda valyuta riskiga esa bank uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega risklar sifatida qaraydi[7].

Xorijlik iqtisodchi olim A.Shapkin tijorat banklari investitsion faoliyatida yuzaga keladigan “favquloddagi risk” sifatida qarz oluvchining barcha mol-mulk qiymatiga teng yoki undan ortiq miqdorda yo‘qotish xavfi bilan tavsiflanadigan riskni tavsiflaydi. Uning fikricha, odatda “favquloddagi risk” korxonaning bankrotlikka va to‘liq to‘lov qobiliyatini yo‘qotishga olib keladi, chunki mazkur holatda nafaqat loyihaga kiritilgan barcha mablag‘larni, balki uning mol-mulkini ham yo‘qotish xavfi yuzaga keladi deb ta‘kidlab o‘tgan[8].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh.Abdullayeva tomonidan ham bank riski tushunchasi tadqiq etilgan bo‘lib, u “bank riski – bu bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida bank mablag‘larining bir qismini yo‘qotish, yoki daromad ololmaslik sharoitida ijobiy natijaga umid qilib, bank operatsiyalarini (depozit, kredit, investitsiya, valyuta) o‘tkazishdir”[9] deb ta‘kidlaydi.

D.Ismailov o‘z tadqiqotlarida tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalash usullarini riskni kamaytirish orqali yanada takomillashtirish borasida “ilmiy yangilik va kashfiyotlarga asoslangan yuqori texnologik loyihalarni amalga oshirish odatda yuqori darajadagi risklarga ega bo‘lganligi sababli, shuningdek respublikamizda venchurli moliyalashga talab yuqori bo‘lib, ushbu riskli investitsiyalash usuli rivojlanmaganligi tufayli mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun xorijiy venchur fondlarini faol jalb etish zarur”[10] ekanligini ta‘kidlaydi.

Shuningdek, D.Nafasov tomonidan bank risklari tushunchasiga nisbatan quyidagicha yondashuv ilgari so‘rilgan: «Xalqaro bank amaliyotida risklar bilan bog‘liq munosabatlar asosan aktiv operatsiyalar jarayonida ro‘y beradi. Biroq, ta‘kidlash joizki, tijorat banklarining barcha aktiv operatsiyalari risk bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Xususan, tijorat banklarining riskka bog‘liq bo‘lgan asosiy aktiv operatsiyalari sifatida kredit va investitsiya operatsiyalarini ta‘kidlash maqsadga muvofiq. Banklarning ushbu aktiv operatsiyalari yuqori darajada riskka



bog'liqligining boisi, banklar ushbu operatsiyalar orqali o'zining daromadlarini shakllantiradi» deb e'tirof etilganligini ko'rishimiz mumkin[11].

Ushbu nomlari keltirib o'tilgan iqtisodchi olimlar tomonidan bank riski xususan, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda yuzaga keladigan bank risklarining ayrim jihatlari tadqiq etilib, bu boradagi mualliflik yondashuvlari ilgari so'rilgan. Ammo, loyihaviy moliyalashtirishda yuzaga keluvchi risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish va unga ta'sir etuvchi omillar yaxlit tadqiqot ishi sifatida o'rganilmagan. Bu esa, ushbu yunalishda tadqiqotlar olib borishning o'ziga xos jihatlarni belgilab beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning mavzuga doir yondashuv va qarashlarini tadqiq etish hamda ularga nisbatan mualliflik munosabatini bildirish asosida maqolaning ilmiy-nazariy uslubiy jihatlari, shuningdek, bugungi kunda xalqaro va respublika miqyosida loyihaviy moliyalashtirishda yuzaga keladigan risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, amaliyotdagi riskni boshqarish bilan bog'liq ustuvor jihatlarni tahlil qilish asosida maqolaning amaliy jihatlari shakllantirildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar qiyosiy tahlili, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va qiyosiy taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil va farazni asoslash usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiya loyihalari – bu korxonalar tomonidan qo'yilgan maqsadga erishish uchun unga moliyaviy kapitalni samarali qo'yishni amalga oshirish maqsadida tashkil etilayotgan tashkiliy-iqtisodiy qarorlar tizimi hisoblanadi. Loyihalarning shakli va mazmuni turli xil bo'lishi mumkin – ya'ni, yangi korxonani qurishdan ko'chmas mulkni xarid qilishgacha va h.k.

Hozirgi kunda xalqaro miqyosda shakllangan tendensiyalar O'zbekiston banklari uchun yangi, zamonaviy-innovatsion imkoniyatlar berishi barobarida muayyan risklarni yuzaga kelishiga ham olib keladi. Investitsion loyihalarni amalga oshirish risk omillarining yuzaga kelishi mumkinligi bilan, ya'ni loyiha oldiga qo'yilgan maqsadlarga to'liq yoki qisman erisha olmaslik mumkin bo'lgan risk bilan bog'liqdir.

Bankning investitsion loyihalarni moliyalashtirish faoliyati obyekti – iqtisodiyotning real sektori korxonalaridagi ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash yoki modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni kengaytirish yoki ishlab chiqarish xavfsizligini oshirish hamda qo'shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini xarid qilish bilan bog'liq investitsion loyihalardir.

Quyidagilar investitsiya faoliyatining subyektlari, ya'ni investorlar va investitsiya faoliyati ishtirokchilari bo'lishi mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining fuqarolari (jismoniy shaxslar);
- yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar - rezidentlari;
- davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari;
- chet davlatlar, chet davlatlarning ma'muriy yoki hududiy organlari, xalqaro tashkilotlar hamda chet ellik yuridik shaxslar va fuqarolar, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

Investitsion loyihalarni kreditlashda risklarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun bank riski tushunchasining mohiyatini yanada kengroq ochib berish hamda real investitsiyalash bo'yicha kredit operatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash lozim bo'ladi.

Bizga ma'lumki, mamlakatimizda bank risklarini boshqarish amaliyoti uzoq tarixga ega emas hisoblanadi. Mamlakatimiz istiqbolga erishgunga qadar aksariyat tijorat banklarining davlat mulki asosida tashkil qilinganligi, shuningdek, o'z faoliyatini asosan davlat korxonalar va tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirganligi sababli banklarda risk muammosi muhim tarzda yuzaga kelmagan. Zamonaviy bank mustaqil bank tizimining shakllanishi, bank tizimida xususiy va aksiyadorlik tijorat banklarining tashkil etilishi banklar faoliyatini xalqaro miqyosda integratsiyalashuviga keng yo'l ochib berdi. Bu esa, bank operatsiyalari va xizmatlari samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi omillar xususan, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda yuzaga keladigan bank risklari omiliga alohida e'tibor qaratish zaruratini keltirib chiqardi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirish, innovatsion va energiyani tejaydigan yangi texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, jahon bozorida talab mavjud bo'lgan yangi turdagi tovarlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish va shu orqali mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda investitsion siyosat o'z samarasini bermoqda.

Xususan, oxirgi yillarda asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy fondlar turlari tarkibi bo'yicha tahlilini ko'rib chiqamiz (1-rasm) [12].



## 1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy fondlar turlari bo'yicha tarkibi mlrd. so'm


Asosiy fondlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Jami	195927,3	210195,1	239552,6
Turar-joy binolari	20621,9	23200,8	29851,0
Noturar-joy binolari	33408,1	38172,7	50894,5
Boshqa inshootlar	23148,7	27039,0	30290,6
Yerni yaxshilash	127,3	285,9	277,1
Mashina va uskunalari, jami:	107305,8	110493,8	113863,9
Transport uskunolari	16588,2	12415,2	14574,5
Axborot, kompyuter va telekommunikatsiya (AKT) uskunolari	3194,8	7347,0	5325,6
Boshqa mashina va uskunalari	87522,7	90731,6	93963,8
Bir necha marta mahsulot beruvchi, xayvonlar resurslari	2418,9	2843,0	3656,8
Bir necha marta mahsulot beruvchi daraxtlar, qishloq xo'jalik ekin va ko'chatlar resurslari	372,0	880,7	838,6
Noishlab chiqarish aktivlarga mulk huquqini berish bilan bog'liq xarajatlar	198,1	225,0	138,2
Komyuter dasturiy ta'minoti va ma'lumotlar bazalari	28,7	25,2	98,6
Ko'ngilochar, adabiy va badiiy asarlarning asl nusxalari	3,7	1,6	0,8
Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar	5,9	86,5	30,8
Foydali qazilmalar zahiralari razvedka qilish va baholash	763,7	26,7	96,4
Boshqa intellektual mulk mahsulotlari	330,1	229,0	292,3

Statistik ma'lumotlar tahlil qilinsa, asosiy kapitalga investitsiyalar asosiy fondlar turlari tarkibi bo'yicha mashina va uskunalari yetakchilik qilmoqda. Mazkur asosiy investitsiya fondi turida jami moliyalashtirish manbalari 2023-yilda 113 863,9 mlrd. so'm yoki avvalgi yillarga nisbatan bir necha foizga o'sgan. Uning tarkibi 2023-yilga nisbatan quyidagilardan iborat: – 14 574,5 mlrd. so'mi transport uskunolari; – 5 325,6 mlrd. so'mi axborot, kompyuter va telekommunikatsiya (AKT) uskunolari; – 93 963,8 mlrd. so'mi boshqa mashina va uskunalarga tegishlidir.

Tijorat banklari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunda sanoat hamda jismoniy shaxslarga ajratilgan investitsion mablag'lar hajmi yuqori salmoqqa ega ekanligini ko'rish mumkin bo'ladi (2-rasm) [13].

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 31 foizi yoki 51,3 trln. so'mi sanoatga yo'naltirilgan. Shuningdek, boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: jismoniy shaxslarga ajratilgan investitsiyalar hajmi umumiy kiritilgan investitsiyalarning 24 foizini yoki 40,5 trln. so'mni tashkil etgan.

Shu o'rinda, tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirishda loyihaning quyidagi sifat ko'rsatkichlariga, ya'ni diskontlash stavkasi, sarflanadigan mablag'larni qoplash muddati, qaytarib berishning diskontlashgan muddati, rentabellikning o'rtacha normasi, loyihadan keladigan sof daromad, daromadlar indeksi, rentabellikning ichki foyda normasi hamda modifikatsiyalashgan ichki foyda normasiga alohida e'tibor qaratilishi loyiha hayotiyiligi ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda. Ya'ni, loyiha sifat ko'rsatkichlarini yuqori samaradorlikka ega bo'lishi ko'rib chiqilayotgan investitsion loyihalarning sifatligidan dalolat beradi.



2-rasm. Tijorat banklari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimoti. 2024-yil 1-yanvar holatiga (foizda).

Bugungi kunda tijorat banklarining iqtisodiyot tarmoqlariga investitsion loyihalar mablag'larni yo'naltirish faoliyatini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirishda quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- O'zbekiston Respublikasining tijorat banklarini yillik investitsiya dasturlari va hududiy investitsiya dasturlarini, jumladan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni moliyalashtirishda, moliyalashtirishdan keyingi jarayonlar monitoringida ishtirok etishda, xorijiy investitsiyalar, kreditlar va moliyaviy-texnik ko'maklashishga qaratilgan mablag'larni jalb etishda faollik qilishi va tashabbus ko'rsatishi;

- iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarga investitsiyalar kiritish hajmini kengaytirish va rag'batlantirish, respublikada investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalar jalb qilish siyosatini amalga oshirish;

- investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini tizimli nazorat qilish, shuningdek, investorlar tomonidan investitsiya majburiyatlari qanday bajarilayotganligini tahlil qilish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi investitsiya loyihalarining o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni, risklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tezkor choralar ko'rish asosida mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish;

- tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirish risklarni boshqarish, monitoring qilish va baholashda risk-boshqaruvidan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Risk-boshqaruvi orqali banklar o'z aktivlari sifati va tarkibini, vujudga kelishi mumkin bo'lgan risklarning joriy holatini doimiy ravishda kuzatib boradi hamda risk natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarning oldi olinishi ta'minlanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirishda risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Investitsiya loyihalariga ajratilayotgan moliyaviy mablag'lar maqsadli sarflanishini doimiy ravishda tahlil va monitoring qilib borish, loyiha ishga tushurilgandan so'ng daromadlar tushumini o'z muddatida amalga oshirish, muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rib borish.

2. Loyihaviy moliyalashtirish mablag'laridan samarali foydalanish ustidan dastlabki nazoratni to'g'ri va mukammal amalga oshirish, bu jarayonda birinchi navbatda, uning mavjud moliyaviy ahvoriga, ushbu sohadagi bilim va tajribasiga hamda loyihaning sifat ko'rsatkichi holatlariga alohida e'tibor qaratish.

3. Loyihaviy moliyalashtirishda yuzaga keladigan risklarni boshqarishning mikro va makrodarajada ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bank risklari boshqaruvining mikrodarajadagi ahamiyati sifatida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlanganligi, banklarning mijozlar oldidagi majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajarish imkoniyatini berishi va iqtisodiy jihatdan tegishli iqtisodiy manfaatdorlikni olishi.

4. Risklarini boshqarishning makrodarajadagi ahamiyati sifatida iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishga bank tizimining ijobiy ta'siri, milliy valyutaning xarid qobiliyatini mustahkamlash va



inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichlari ta'minlanganligi, mamlakat to'lov balansida ijobiy qoldiq vujudga kelishi kabi holatlarni keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, investitsion loyihalarini moliyalashtirishda risklar va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, ushbu jarayonning samarali yo'lga qo'yilishi tijorat banklari tomonidan moliyalashtirilgan loyihaviy moliyalashtirish samaradorligini ta'minlash, uning natijasida tijorat banklarining foizli daromadlari darajasini oshirish imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598 qonuni. 25.12.2019-y. QHMMB: 03/19/598/4221-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni. QHMMB: 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil, 14-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5717-son farmoni. QHMMB: 15.05.2019-y., 06/19/5717/3132-son; 18.08.2020 y., 06/20/6042/1190-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil, 21-iyundagi "Xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3796-sonli qarori. 22.06.2018-y. QHMMB: 07/18/3796/1379-son.
5. Миркин Я.М. Рынок ценных бумаг: учеб. пособие. М., 2002. – с. 56-57.
6. Narayana A., Mahadeva K. Risk Management in Banking Sector - An Empirical Study / Imperial Journal of Interdisciplinary Research (IJIR). Vol-2, Issue-8, 2016. P. 1219. ISSN: 2454-1362, <http://www.onlinejournal.in>
7. Роуз П.С. Банковский менеджмент. М.: Дело, 1995.
8. Шапкин А.С., Шапкин В.А. Теория риска и моделирование рискованных ситуаций. Учебник.-2-ое изд. М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К». 2007. – С. 46-50.
9. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kredtlash. - T.: Moliya, 2002.
10. Ismailov D.A. Investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish usullarini takomillashtirish. (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2018-y. 19-bet.
11. Nafasov D.B. Bank risklarini boshqarishning iqtisodiy mazmuni va ahamiyati. Iqtisodiyot va ta'lim. 2017-y. 1-son., 15-bet.
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti <https://stat.uz/uz/#> ([www.stat.uz](http://www.stat.uz))
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti <https://cbu.uz/oz/statistics/> ([www.cbu.uz](http://www.cbu.uz))



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---